

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan I yarim yillik
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Men oltin qoida bo‘yicha yashayman. (Loyiha ishining baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Men oltin qoida bo‘yicha yashayman	1		
3.	Rostgo‘ylik va burchni his etib yashash	1		
4.	Rostgo‘ylik va burchni his etib yashash	1		
5.	Adolat - hayot haqiqati	1		
6.	Minnatdorlik yuragimda yashaydi	1		
7.	Minnatdorlik yuragimda yashaydi	1		
8.	Kechirimlilik kuchlilar xislatidir. BSB – 1. (50 ball). Loyiha ishi taqdimoti	1		
9.	Sabr-toqatlilik.	1		
10.	Ona yurtim-oltin beshigim	1		
11.	Mening mahallam - mening faxrim	1		
12.	Mening mahallam - mening faxrim	1		
13.	Xatti-harakat qanday bo‘lsa, oqibat ham shunday bo‘ladi	1		
14.	Xatti-harakat qanday bo‘lsa, oqibat ham shunday bo‘ladi	1		
15.	CHSB – 1. (40 ball)	1		
16.	Bilim ol hunar tanla!	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Men oltin qoida bo'yicha yashayman. (Loyiha ishining baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga men oltin qoida bo'yicha yashayman mavzusi haqida tushunchalar berish, Vatan - O'zbekiston bilan faxrlanishni, mahalla va oilani qadrlashni uqtirish, turli kasb egalarining Vatanimiz rivojiga qo'shgan hissalarini haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: har bir ishni o'z vaqtida, puxta bajarishni, sog'ligi hamda tabiatni asrashni, kitob o'qishning odamga qanchalik foydali ekanligini, ulug' mutafakkirlarning serma'no o'g'itlari, bir-biridan qiziq rivoyatlar ezgulik va yovuzlik, to'g'ri va noto'g'ri xulqlar qanday bo'lishini, har xil vaziyatlarda inson o'zini qanday tutishi zarurligini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: mashhur insonlarni muvaffaqiyatga erishtirgan fazilatlarini haqida ma'lumotlar berish orqali dunyoqarashini kengaytirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

No	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Kunlarning birida o'qituvchi o'quvchilarga umrbod yodda qoluvchi saboq berishni niyat qilib, doskaning chekkasiga 1 raqamini yozibdi va o'quvchilarga qarab: "Bu raqam sizning hayotdagi eng zarur xususiyatingiz - odamiylikingizdir", debdi. Keyin raqamning yoniga 0 raqamini yozib, debdi: "Bu raqam sizning yutuqlaringiz. Odamiylik sizning yaxshi xislatlaringizni o'n baravar oshirdi". O'qituvchi doskaga yana bir nol raqamini yozgach, gapini shunday davom ettiribdi: "Bu raqam tajriba bo'lib, u bilan inson xislatlari yuz baravarga oshdi". Shunday qilib, o'qituvchi dos- kadagi 100 raqamiga do'stlik, sevgi, mehr-oqibat kabilarni anglatuvchi yana bir nechta nol raqamini qo'shib: "Har bir qo'shilgan nol raqami insonni o'n marotaba yuksaklikka ko'taradi", - debdi. —To'satdan u raqamlar qatorining boshidagi bir raqamini



o'chirib tashlabdi. Sinf doskasida ma'nosiz nollargina qolibdi. O'qituvchi doskadagi nollarga tushunolmay turgan o'quvchilarga qarab, jiddiy ohangda: "Agar sizda odamiylik bo'lmasa, qolganlari bafoyda", - deb gapini yakunlabdi.


1. "Odamiylik", "odam bo'lish" iboralarining ma'nosini tushuntiring.

2. "Odamiylik" so'zining sinonimlarini toping.

1-topshiriq. Rasmni kuzating va sehrlı sharbatlar tayyorlovchi sehrgarnı tasavvur qiling. Rasmdagi idishlar javonida sehrgar tomonidan tayyorlangan turli xil - yaxshi va yomon xislatlarga ega sehrlı sharbatlar turibdi. Uni ichgan inson mazkur xislatlarga ega bo'ladi.

1. Yaxshi inson bo'lish uchun qanday sharbatlarnı tanlagan bo'ladingiz? Siz 6 xil xislatni tanlashingiz zarur.

2. Xislatlar nomi yozilmagan bo'sh idishlarga qarang. Sizningcha, sehrgar yana qanday xislatli sharbatlarnı tayyorlashi kerak?



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Axloq nima?

2. Ma'naviyat nima va uning qanday "oltin qoidasi" bor?

3. Insonning eng oliy ma'naviy qadriyatlari qaysilar?

4. Axloqli bo'lish nimani anglatadi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarnı yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Men oltin qoida bo'yicha yashayman.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga men oltin qoida bo'yicha yashayman mavzusi haqida tushunchalar berish, Vatan - O'zbekiston bilan faxrlanishni, mahalla va oilani qadrlashni uqtirish, turli kasb egalarining Vatanimiz rivojiga qo'shgan hissalarini haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: har bir ishni o'z vaqtida, puxta bajarishni, sog'lig'i hamda tabiatni asrashni, kitob o'qishning odamga qanchalik foydali ekanligini, ulug' mutafakkirlarning serma'no o'g'itlari, bir-biridan qiziq rivoyatlar ezgulik va yovuzlik, to'g'ri va noto'g'ri xulqlar qanday bo'lishini, har xil vaziyatlarda inson o'zini qanday tutishi zarurligini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: mashhur insonlarni muvaffaqiyatga erishtirgan fazilatlarini haqida ma'lumotlar berish orqali dunyoqarashini kengaytirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa


I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:


Har bir inson ulg'ayar ekan, ezgulik va yovuzlik nima ekanligini anglay boshlaydi. Hamma badiiy asarlar va filmlarda yaxshilik, ezgulikka intiluvchi ijobiy qahramonlar bo'ladi. Mazkur qahramonlarga esa salbiy, yovuz qahramonlar qarshi turadi. Ular o'rtasida doimo ezgulik va yovuzlik kurashi davom etadi. Albatta, ezgulik yovuzlikdan ustun kelganida hamma xursand bo'ladi.

Bu esa insonda qadimdan ezgulikka intilish mavjudligining isbotidir. Chunki ezgulik insonning o'sishi, rivojlanishi, yuksalishiga sabab bo'ladi, sevgi, muhabbat, do'stlik, sadoqat, minnatdorlik, hurmat kabi oliy hissiyotlarni uyg'otadi. Inson bolaligidanoq odob-axloq asoslariga tayangan holda tarbiyalanadi. Kelajakda qanday inson bo'lishi esa uning o'ziga bog'liq, sababi nafaqat tushunish va farqlash, balki axloqiy me'yorlarga muvofiq harakat qilish ham muhimdir. Axloq - bu qanday xulq-atvorlar to'g'riligi, qaysilari esa noto'g'riligini belgilab beruvchi qoidalar to'plami. Omma axloqi ham mavjud bo'lib, u insonlarning umumiy qoidalarini o'z ichiga



oladi. Bu qoidalar jamiyatda ezgulik, haqiqatgo'ylik, burch, vijdon, adolat haqidagi tasavvurlar va qadriyatlar asosida shakllanadi.

2-topshiriq. Insonning ma'naviy va axloqiy qadriyatlari to'g'risida klaster tuzing.



3-topshiriq. Barcha xislatlarni quyidagi toifaga: siz "yaxshi" deb hisoblagan va ezgulikka olib boruvchi xislatlarga hamda siz "yomon" deb hisoblagan va yovuzlikka sabab bo'luvchi illatlarga ajrating.

RIVOYAT

Qadimda bobo nabirasiga bir hayotiy haqiqatni so'zlab beribdi: - Har bir insonning qalbida ikki bo'ri olishuviga juda o'xshash kurash boradi. Bir bo'ri yovuzlik - hasad, g'azab, yolg'on, xudbinlik, shafqatsizlik, ikkiyuzlamachilikni namoyon etadi. Boshqasi esa yaxshilik - tinchlik, muhabbat, halollik, haqiqat, mehribonlik, vafoni ifodalaydi. Kichkintoy nabiraning qalbi bobosining so'zlaridan hayajonga to'lib, bir necha lahza o'ylanib qolibdi va birozdan so'ng bobosidan so'rabdi: - Oxir-oqibat qaysi bo'ri g'olib bo'ladi? Bobo nabirasiga jilmayganча javob beribdi:

1. Boboning javobini siz qanday tushundingiz?

2. Sizda qaysi "bo'ri" ko'proq g'olib keladi?

3. Barcha insonlar qalbida doimo yaxshi "bo'ri" g'alaba qozonishi 1. 5-betdagi sehrli sharbatlar tasvirlangan rasmni o'z yaqinlaringiz, do'stlaringizga ko'rsating, ular siz ega bo'lishingiz kerak bo'lgan xislatlarni tanlashlarini iltimos qiling. 2. O'zingiz tanlagan xislatlarni hamda siz uchun tanlagan xislatlarni daftaringizga yozing. Ularni solishtiring. Siz har kuni atrofingizda turli xil insonlarni uchratasiz. Bular yo'lovchilar, o'qituvchilar, sotuvchilar, tibbiyot xodimlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Siz bu odamlar bilan qisqa yoki uzoq vaqt muloqotda bo'lasiz. Siz ular bilan shunchaki muloqot qilmaysiz, balki munosabatlar o'rnatasiz. Asosiysi, samimiy munosabatda bo'lishingizdir. Buning uchun atrofingizdagilarga ismini aytib, hurmat bilan murojaat qiling. Xushmuomala, e'tiborli va rostgo'y bo'ling, hammani birdek hurmat qiling. uchun qanday harakatlar qilishimiz kerak, deb hisoblaysiz?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Men boshqa odamlarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olaman.

2. Men o'zimning yaxshi yoki yomon ish qilayotganimni bilaman.

3. Menga boshqalarga yordam berish yoqadi.

4. Menga yordam berishlari yoqadi.


V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)



Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat 6-sinf tarbiya fanidan I yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**